

TADBIRKORLIK XAVFINI SUG'URTALASH SHARTNOMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Pirimov Mansurali Suyun o'g'li

**“O'zbekinvest” eksport-import sug'urta kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatining
Yuridik departamenti yetakchi yuriskonsulti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14678427>**

Mulknii sug'urtalashning maxsus turi sifatida tadbirkorlik xavfining sug'urtalashning o'ziga xos xususiyatlari tadbirkorlik xavfini sug'urtalash shartnomasining mazmuni (shartlari) bilan belgilanadi. Shartnoma erkinligi prinsipini hisobga olgan holda, tomonlar shartnomada ular uchun muhim bo'lgan qoidalarni, ularsiz shartnoma qonuniy kuchga ega bo'lmagan shartlarni belgilash huquqiga ega. Shuningdek, sug'urtalovchi sug'urta huquqiy munosabatlarining professional ishtirokchisi bo'lganligi sababli, sug'urta qildiruvchi ko'proq qonuniy himoyaga muhtoj hisoblanadi.

Tadbirkorlik xavfini sug'urtalash shartnomasining xususiyatlarini ko'rib chiqishni tadbirkor, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyekt bo'lishi mumkin bo'lgan sug'urta qildiruvchining huquqiy holati tavsifi bilan boshlash kerak. Sug'urta obyektining xususiyatlari xavf tashuvchisi bo'lgan subyektga va u amalga oshiradigan faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. Shuningdek, tadbirkorlik tavakkalchiligini sug'urtalash shartnomasining xususiyatlaridan biri bu o'zaro munosabatdir, ya'ni tomonlar bir-biriga nisbatan tegishli huquq va majburiyatlarga ega. Kontragentlar shartnoma erkinligi tamoyiliga amal qilib, shartnoma tuzishda ular uchun mavjud bo'lgan huquq va majburiyatlarni nazarda tutish huquqiga ega. Bunday holda, bunday shartlar muhim deb tan olinadi, ularga rioya qilmaslik buzilgan tomon uchun qonuniy ahamiyatga ega oqibatlariga olib keladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, naf oluvchi va sug'urtalanuvchi kabi sug'urta munosabatlarining ishtirokchilari, mulkiy sug'urtaning boshqa turlariga xos bo'lib, tadbirkorlik xatarlarini sug'urtalash doirasida yo'q. Bu qonunchilik tomondan esa, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 920-moddasiga asosan, tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha faqat sug'urta qildiruvchining o'z tadbirkorlik xavfi va faqat uning foydasiga sug'urtalanishi mumkin. Sug'urta qildiruvchi bo'lmagan shaxsning tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi o'z-o'zidan haqiqiy emas. Sug'urta qildiruvchi bo'lmagan shaxsning foydasiga tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi sug'urta qildiruvchi foydasiga tuzilgan hisoblanadi. Sug'urta qildiruvchi bo'lmagan shaxsning foydasiga tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi sug'urta qildiruvchi foydasiga tuzilgan hisoblanadi.

Tadbirkorlik tavakkalchiligini sug'urtalash shartnomasining navbatdagi xususiyati sug'urta summasini hisoblash tartibi bo'lib, u umumiy qoida bo'yicha sug'urta qiymatidan oshmasligi kerak. Sug'urtalovchilar orasida sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turi va xususiyatlarini baholashni hisobga olgan holda sug'urta qiymatining ta'rifini sug'urta shartlariga kiritish muhim hisoblanadi.

Tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish tadbirkorning kontragenti o'z majburiyatlarini buzishi, yoki tadbirkor faoliyatining sharoitlari unga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra o'zgarishidan himoya qilish uchun amalga oshiriladi. Bu yerda daromad olishga qaratilgan izchil faoliyat nazarda tutilgani bois, faoliyat sharoitlarining o'zgarishi ham izchil xususiyat kasb etishi lozim. Bu tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha, masalan, yuk bir marta tasodifiy yo'qotilishi tufayli boy berilgan foyda emas, balki faoliyat sharoitlari o'zgarishi

natijasida yukni yo'qotish hollari ko'payganligi tufayli boy berilgan foyda sug'urtalanishi mumkin.

Tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish obyektiga mol-mulkni sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalanuvchi manfaat hamda fuqarolik huquqiy javobgarlikni sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalanuvchi manfaatlar ham kiradi. Shu sababli tadbirkorlik faoliyatini olib borayotgan shaxslar o'z mol-mulki va javobgarligini qay shaklda sug'urta qilishni tanlashlari mumkin va shunga qarab normativ tartibga solish turlicha bo'ladi. Bunga tabiiy ofatlardan sug'urta qilish misol bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, sug'urta qildiruvchining sug'urta shartnomasini tuzish paytida mumkin bo'lgan yo'qotishlarini aniq prognoz qilish mumkin emas, chunki sug'urta qildiruvchining kontragentlari o'z majburiyatlarini bajarmaganligi, bozor sharoitidagi o'zgarishlar, iqtisodiy sanksiyalar va boshqalar holatlar yuza berish ehtimoli mavjud.

Shunday qilib, tadbirkorlik xavfini sug'urtalash shartnomasi mulkni sug'urtalash shartnomasining bir turi bo'lib, unga muvofiq sug'urtalovchi shartnomada nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berganda (tadbirkorning kontragentlari tomonidan majburiyatlarning buzilishi yoki ushbu faoliyat shartlarining tadbirkorga bog'liq bo'lmagan holatlar tufayli o'zgarishi sababli) ma'lum bir haq evaziga majburiyat oladi, jumladan kutilayotgan holatlar (daromadni olmaslik) bo'yicha sug'urta qildiruvchiga yetkazilgan zararni qoplash bo'lishi mumkin. Mazkur xususiyatlarga ega bo'lgan shartnoma mulkni sug'urtalash shartnomasining boshqa turlaridan ajralib turadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 2-qism (online manba: <https://lex.uz/docs/-180552#-195967>)
2. Муравлева А.В., Струнина К.Д., Ненюкова Ю.С. Страхование предпринимательских рисков//Интерактивная наука. 2022. № 1 (66). С.50-51;
3. Степанова Д.М. Правовое регулирование договора страхования предпринимательских рисков// Международный научный журнал «ВЕСТНИК НАУКИ». 2019. Т. 2. № 4 (13). С. 62-64.
4. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksiga sharh: Ilmiy sharhlar. T 3./O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. — Toshkent: Baktria press, 2013. 800 b